

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**O‘ZBEK VA ARAB ADIBLARI IJODIDA
“ESKI MAKTAB” TIZIMINING BADIY TALQINI****Shahlo Ahmedova***O'qituvchi, filologiya fanlari nomzodi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: Eski maktab, musulmon ta'lim tizimi, madrasa, ma'rifatparvarlik adabiyoti, “Ayyam”, “Xotira esdaliklari”, “Mulla”, ta'lim islohotlari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek–arab adiblari ijodida “eski maktab” timsoli kuzatiladi. O'rta asrlarda mushtarak islom tamadduni o'z taraqqiyotida ulkan madaniy-ilmiy-adabiy yuksalish bosqichlardan o'tdi. Islom ma'rifati solih musulmondan ilohiy va dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lishni talab qilardi. Musulmon an'anaviy ta'lim tizimi ikki bosqichli bo'lib, birinchisi maktab-unga dastlabki bilim berish, yozuv, o'qish, Qur'oni Karimni yodlash kabi vazifalar yuklangan edi. So'ngra, o'quv jarayoni o'rta va oliy diniy o'quv yurti-madrasalarga ko'chardi. U yerda ulamolar va maktabdorlar, davlat devonxonalariga kotiblar (xodimlar) tayyorlanar edi. Ko'pincha madrasalar katta masjidlar qoshida ochilardi. Bizning mintaqamizda har bir shaharda maktablar va madrasalar bo'lgan. Madarsalarda diniy fanlar-Qur'oni Karimning tafsiri, hadislar, shariat qonunlari bilan birga tibbiyot, aruz ilmi, riyozat, falsafa, jug'rofiya va boshqa fanlardan saboq berilgan. Butun dunyoga tanilgan buyuk allomalarimiz mana shu an'anaviy musulmon ta'limini olgan.

Shuningdek, ushbu maqolada kech o'rta asrlarga borib dastlabki ta'lim o'chog'i-maktablar bir muncha oldingi mohiyatini yo'qotib, asosan alifbo o'rgatuvchi va Qur'oni Karimning ma'nosini yaxshi tushuntirmasdan yodlatuvchi muassasaga aylanganligi xususida so'z yuritiladi. Yangi davrga borib bunday maktablar bilim berishda hayotdan uzilib, ro'y berayotgan o'zgarishlarga mutlaqo javob bermasdan qoldi. Ko'pincha ularda muallimlikni chalasavod

mullalar bajarardi, bolalarni o'rgatishda faqat eski an'anaviy usullardan foydalanardilar. Yangi davrda ayniqsa, ma'rifatparvarlik bosqichida (XIX-XX asr boshida) Turkistonda ham, arab olamida ham yangi maktablarga, zamonaviy o'qishga ehtiyoj tobora kuchaydi. Eski maktab tizimi esa qattiq tanqidga olindi. Shunisi qiziqki, bu jarayon Turkistonda va arab olamida bir vaqtda o'xshash tarzda kechdi, vaholanki, bu mintaqalar bir-biridan ancha uzoqda joylashgan bo'lsa ham. Hayot muammolariga hozirjavob badiiy adabiyot o'z tomonidan eski maktab muammosiga yondoshib, Turkistonda ma'rifatparvar adiblar Sadridin Ayniy va Abdulla Avloniy asarlarida o'z ifodasini topdi.

Sadridin Ayniy o'zining "Eski maktab" asarida o'sha davr ta'lim tizimining sustligi, insonlarning loqaydligi, bugunini o'ylab yashagani-yu, farzandlari taqdiriga yetarli e'tibor bermaganini ko'rsatib beradi.

Maqolada o'zbek ma'rifatparvarlari bilan bir qatorda buyuk arab yozuvchisi Toha Husaynning "Kunlar" ("Ayyam") romani, Kuvayt adabiyotining taniqli adibasi Surayyo Baqsamiyning "Mulla", Birlashgan arab Amirligi adabiyotining yorqin vakilasi Shayxa Naxiyning "Xotira esdaliklari" kabi asarlari tahlilga tortilgan.

Shunisi e'tiborga molikki, yuqorida Sadridin Ayniyning "Eski maktab" asarida keltirilgan vaziyatni biz XX asr 30-yillarida yaratilgan Toha Husaynning "Kunlar" romanida, shuningdek XX asr 70-yillarida yaratilgan Surayyo Baqsamiyning "Mulla" hikoyasida ham ko'ramiz.

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE "OLD SCHOOL" SYSTEM IN THE WORKS OF UZBEK AND ARABIC WRITERS

Shahlo Akhmedova

Professor, Candidate of Philological Sciences,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Old school, Muslim education system, madrasah, enlightenment literature, "Ayyam", "Memories of memory", "Mulla", educational reforms.

Abstract: This article observes the image of "old school" in the works of Arab-Uzbek writers. In the Middle Ages, the common Islamic civilization went through the stages of great cultural, scientific and literary growth in its development. Islamic enlightenment required a righteous Muslim to be aware of divine and worldly knowledge. The traditional Muslim education system is two-stage, the first is the school, which provides basic knowledge, writing, reading, Tasks such as memorizing the Qur'an were

assigned. Then, the educational process moved to secondary and higher religious educational institutions-madrasas. Clerks and schoolmasters, secretaries (employees) for state offices were trained there. Madrasahs were often opened near large mosques. In our region, there were schools and madrasahs in every city. In the madrasahs, religious studies - interpretation of the Holy Qur'an, hadiths, laws of Sharia along with medicine, astrology, mathematics, philosophy, geography and other subjects are taught. Our great scholars known all over the world received this traditional Muslim education.

Also, this article talks about the fact that by the late Middle Ages, primary educational centers-schools have lost their former essence and turned into an institution that mainly teaches the alphabet and memorizes the Holy Qur'an without explaining its meaning well. By the new era, such schools were cut off from life in providing education and completely did not respond to the changes taking place. Most of the time, they were taught by illiterate mullahs, who used only old traditional methods to teach children. In the new era, especially in the stage of enlightenment (XIX-early XX centuries), the need for new schools and modern education has become increasingly intense both in Turkestan and in the Arab world. The old school system was severely criticized. It is interesting to note that this process took place simultaneously in Turkestan and in the Arab world, although these regions are located far from each other. Fiction literature, which is a modern answer to the problems of life, approached the problem of the old school and found its expression in the works of enlightened writers Sadriddin Ainiy and Abdulla Avloni in Turkestan.

Sadriddin Ainiy in his work "Old School" shows the slowness of the education system of that time, the indifference of people, that they lived thinking about today and did not pay enough attention to the fate of their children. Along with Uzbek intellectuals, the novel "Days" ("Ayyam") by the great Arab writer Toha Husayn, "Mulla" by Surayya al-Baqami, a well-known writer of Kuwaiti literature, and "Memories of Memory" by Sheikha al-Nakhi, a bright representative of the literature of the United Arab Emirates, are analyzed in the article. It is worth noting that the situation presented above in Sadriddin Aini's "Old School" is also seen in Toha Husayn's novel "Days" created in the 30s of the 20th century, as well as in the story "Mulla" by Surayyo Baqami, created in the 70s of the 20th

century.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИСТЕМЫ "СТАРОЙ ШКОЛЫ" В ТВОРЧЕСТВЕ УЗБЕКСКИХ И АРАБСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ

Шахло Ахмедова

Учитель, кандидат филологических наук,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: системный подход, специальная система терминологии, строительное поле, организационные правила.

Аннотация: В данной статье рассматривается образ «старой школы» в произведениях арабо-узбекских писателей. В Средние века общеисламская цивилизация прошла в своем развитии этапы большого культурного, научного и литературного подъема. Исламское просвещение требовало, чтобы праведный мусульманин осознавал божественное и мирское знание. Традиционная мусульманская система образования была двухступенчатая, первая – это школа, дающая базовые знания, письмо, чтение, а также ставились такие задачи, как заучивание Корана. Затем образовательный процесс перешел в средние и высшие религиозные учебные заведения-медресе. Здесь готовили писарей и школьных учителей, секретарей (служащих) государственных учреждений. Медресе часто открывались рядом с большими мечетями. В медресе преподавалось религиоведение – толкование Священного Корана, хадисов, законов шариата, и наряду с этим преподавались медицина, астрология, математик, философия, география и многие другие предметы. Наши великие ученые, которые известны во всем мире, получили именно такое традиционное мусульманское образование.

Также в данной статье говорится о том, что к позднему Средневековью начальные учебные центры – школы утратили свою былую сущность и превратились в учреждение, в основном обучающее азбуке и заучивающее Священный Коран без толкового объяснения его смысла. К новому времени такие школы были оторваны от жизни в обеспечении образования и совершенно не реагировали на происходящие изменения. Большую часть времени их обучали неграмотные муллы, которые использовали только старые традиционные методы обучения детей. В новую эпоху, особенно в эпоху просвещения (XIX-начало XX вв.), как в Туркестане, так и в арабском мире все более обострялась потребность в новых школах и современном образовании. Старая школьная система подвергалась резкой критике. Интересно отметить, что этот процесс происходил одновременно в Туркестане и в арабском мире, хотя эти регионы расположены далеко друг от друга. Художественная литература, являющаяся современным

ответом на вопросы жизни, подошла к проблеме старой школы и нашла свое выражение в произведениях просвещенных писателей Садриддина Айния и Абдуллы Авлони в Туркестане.

Садриддин Айний в своем произведении «Старая школа» показывает медлительность системы образования того времени, равнодушие людей, что они жили мыслями о сегодняшнем дне и не уделяли должного внимания судьбам своих детей. Наряду с узбекской интеллигенцией роман «Дни» («Айям») великого арабского писателя Тоха Хусейна, «Мулла» известного писателя кувейтской литературы Сурайи аль-Баксами, «Воспоминания о памяти» Шейхи аль-Нахи, яркий представитель литературы Объединенных Арабских Эмиратов, анализируются в статье.нарисовано. Стоит отметить, что ситуация, представленная выше в «Старой школе» Садриддина Айни, прослеживается и в романе Тоха Хусейна «Дни», созданном в 30-х годах 20 века, а также в повести «Мулла» Сурайя аль-Баксами, созданной в 70-х годов XX века.

KIRISH

O'рта asrlarda mushtarak islom tamadduni o'z taraqqiyotida ulkan madaniy-ilmiiy-adabiy yuksalish bosqichlardan o'tdi. Islom ma'rifati solih musulmondan ilohiy va dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lishni va "utlub ilman min mahadi ila-l-lahadi" ("Beshikdan to qabrgacha ilm izla") shioriga amal qilishni talab qilardi. Musulmon an'anaviy ta'lim tizimida ikki bosqich ahamiyatli edi. Birinchisi maktab (yozish uchun mo'ljallangan makon) - unga dastlabki bilim berish, yozuv, o'qish, Qur'oni Karimni yodlash kabi vazifalar yuklangan edi. Arab olamida bu so'z "kuttab" so'ziga almashdi, Usmoniy Turkiyada, Markaziy Osiyoda, Tataristonda ko'proq "maktab" so'zi ishlatilib kelindi. So'ngra, o'quv jarayoni o'рта va oliy diniy o'quv yurti-madrasalarga ko'chardi. U yerda ulamolar va maktabdorlar, davlat devonxonalariga kotiblar (xodimlar) tayyorlanar edi. Ko'pincha madrasalar katta masjidlar qoshida ochilardi. Bizning mintaqamizda har bir shaharda maktablar va madrasalar bo'lgan. Madrasalarda diniy fanlar-Qur'oni Karimning tafsiri, hadislar, shariat qonunlari bilan birga tibbiyot, aruz ilmi, riyozat, falsafa, jug'rofiya va boshqa fanlardan saboq berilgan. Butun dunyoga tanilgan buyuk allomalarimiz mana shu an'anaviy musulmon ta'limini olgan. So'ngra, kech o'рта asrlarga borib dastlabki ta'lim o'chog'i-maktablar bir muncha oldingi mohiyatini yo'qotib, asosan alifbo o'rgatuvchi va Qur'oni Karimning ma'nosini yaxshi tushuntirmasdan yodlatuvchi muassasaga aylandi. Yangi davrga borib bunday maktablar bilim berishda hayotdan uzilib, ro'y berayotgan o'zgarishlarga mutlaqo javob bermasdan qoldi. Ko'pincha ularda muallimlikni chalasavod mullalar bajarar, bolalarni o'qitishda faqat eski an'anaviy usullardan foydalanardilar. Yangi davrda ayniqsa, ma'rifatparvarlik bosqichida (XIX-XX asr boshida) Turkistonda ham, arab olamida ham yangi maktablarga, zamonaviy o'qishga ehtiyoj tobora kuchaydi. Eski maktab tizimi esa qattiq tanqidga olindi. Shunisi qiziqki, bu jarayon Turkistonda va arab olamida bir vaqtda o'xshash tarzda kechdi, vaholanki, bu mintaqalar bir-biridan ancha uzoqda joylashgan bo'lsa ham. Hayot muammolariga hozirjavob badiiy adabiyot o'z tomonidan eski maktab

muammosiga yondoshib, Turkistonda ma'rifatparvar adiblar Sadriddin Ayniy va Abdulla Avloniy asarlarida o'z ifodasini topdi.

Ma'rifatparvar yozuvchi Sadriddin Ayniyning mashhur "Eski maktab" (1935) hikoyasi avtobiografik asar bo'lib, yozuvchi unda o'zining bolalik davri-ilk saboq olish onlarini tasvir etadi.

"Eski maktab"dagi voqealar rivoji XIX asr muhitini o'quvchining ko'z o'ngida gavdalantiradi.

Hikoya eski maktablarda o'qish qanday olib borilganligi, dars beruvchi mudarrisning va o'quvchilarning bilim saviyasi qay darajada bo'lganligini yoritadi. "Eski maktab" hikoyasidagi qahramon o'ziga xos xarakterga ega. U maktabdagi eng kichkina, yuvosh, odobli va qobiliyatli bola sifatida tasvirlanadi. Sadriddinni otasi katta umidlar bilan maktabga beradi. Ota-onasi unga "endi g'ayrat qilib o'qi, tengqurlaring bilan barobar bo'l"-der edi. Shuning uchun ham u, "Men, menga qattiq ta'sirli bo'lgan mehribon onamning bu nasihatini bajo keltirish, tezroq saboq o'rganib o'z tengqurlarim bilan barobar bo'lish va hatto ulardan o'zib ketishni istar edim"[6:64], deb yozgan edi. Yozuvchi hikoyani bolalarga xos sodda, samimiy tilda bayon etgan. Voqeaning bola tilidan ifoda etilishi hikoyaning ta'sirchanligini, jozibasini oshirgan. Voqealar, obrazlar jonli chiqqanligi hikoyaning badiiy baquvvat bo'lishiga olib kelgan.

Maktabga o'qishni o'rganish maqsadida domladan saboq olishga borgan qahramon, bir o'quvchi bolaning domla tomonidan kaltaklanishini ko'rib, qattiq ta'sirlanadi, iztirobga tushadi, hatto "domlaning kaltagi bo'lsa, dadamning pichog'i bor. Agar meni ursa, dadamga aytaman, dadam uni qulog'ini kesib tashlaydi", - deya o'ziga taskin beradi. Bu sodda so'zlarni o'qigan kitobxon yuziga beixtiyor tabassum yuguradi.

Yosh Sadriddinning adolat tarafdori bo'lib ulg'ayishi, yozuvchi va shoir bo'lib yetishishiga sababchi bo'lgan otasi, maktab domlasining kirdikorini, uning chalasavodligini, bo'lar-bo'lmasga bolalarni jazolashi, ayniqsa, pulga o'chligini tez anglaydi. Dadasi uyga qo'shnilarni chaqirib, bolalarni o'qitayotgan domlaning o'zining hali savodi chiqmaganligini uqtiradi. Ammo yig'ilgan ota-onalar, domla harf tanitib qo'yayotgani yetarli, deb tarqashadi. Bu manzara orqali yozuvchi o'sha davr ta'lim tizimining sustligi, insonlarning loqaydligi, buguninigina o'ylab yashagani-yu, farzandlari taqdiriga yetarli e'tibor bermaganini ko'rsatib beradi.

Asar so'ngida hikoya qahramoni bir mulla bilan abjad yil hisobidan savol-javob qilib bellashgani, unda Sadriddin g'olib bo'lib, mullavachcha yengilgani ko'rsatilgan. Abjad hisobini esa bola dadasidan o'rgangan edi, chunki dadasi o'z zamonasining savodli, bilimli kishilaridan bo'lgan. Mulla nomini olgan ko'plab "mullavachchalar" kabi bu mullavachcha ham yetarli savod chiqarmagan, oddiy narsalarni bilmagan edi.

Shunisi e'tiborga molik-ki, xuddi shunday vaziyatni biz XX asr 30- yillarida yaratilgan buyuk arab yozuvchisi Toha Husaynning "Kunlar" ("Ayyam") [4:44] romanida ham ko'ramiz. Bu roman ham avtobiografi tarzda yozilgan bo'lib, yozuvchi unda bolalik yillarini eslaydi. U ham qishloqning eski maktabi-kuttabda o'qiydi, chalasavod mulla qo'lida tahsil oladi. Mullaning ota-onalardan pul undirishdagi xurmacha qiliqlari bolalar kulgusini keltiradi. U hech qanday bilim berolmaydi. Roman qahramoni faqat o'zini tirishqoqligi va iste'dodi orqali savod chiqaradi, Qur'onni yodlaydi, ma'nolarini tushunib oladi, oliy o'qishga kiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Toha Husaynning «Kunlar» romani avtobiografik asar bo'lib, unda muallif Nil bo'yidagi kichik shaharchadagi Kuttabda o'qigan davri haqida hikoya qiladi.

«Avvalo, bu asardagi ilgarigi arab adabiyotiga begona bo'lgan realistik tamoyil hayratga soladi», -deb yozgan edi Anas Xolidov(5:11). Kitobxon ko'z o'ngida islom ruhi bilan

yo'g'rilgan, xalq dindorligining o'ziga xos shakli, maishiy tafsilotlarga to'la hayot gavdalanadi. Asarda tadqiq qilinayotgan hayot lavhalariga ijtimoiy ma'no berilgan. Kichik shaharchada o'zaro kurashayotgan kuchlar, ziddiyatlarning avj olishi, keyinroq shaharchanigina emas, butun mamlakatni larzaga soladigan ziddiyatlarning keskinlashib borishi badiiylikka putur yetkazilmagan holda ochib berilgan.

Kitobxon ko'z oldidan din peshvolari bo'lgan qator obrazlar o'tadi. Muallif shayxlar, qozilar, azayimxonlar haqida yozarkan, o'z kinoyasini yashirmaydi. Asarda kuttabning nodon va kaltabin muallimining esda qolarli obrazi yaratilgan. Uning uchun o'quvchilar bilimining o'lchovi – Qur'onni ma'nosini tushunmasdan ko'r-ko'rona yodlash, shuningdek, ota-onalardan keladigan nazr-niyoziqning miqdori.

“Kunlar” romani yengil yumor bilan yo'g'rilgan. Ba'zida esa bu yumor ayovsiz achchiq kinoyaga aylanadi (so'fiylar zikr tushish sahnasi, Qohiradagi birinchi ma'ruza), ba'zida yozuvchi bir luqma tashlashi bilan kulguli vaziyat tug'iladi.

Quvayt adabiyotining yorqin namoyandasi Surayyo Baqsamiyning «Mulla» [2:8] hikoyasidagi maktab tasviri ham Sadridin Ayniyning «Eski maktab»idagi voqealar tasvirini eslatadi: o'sha-o'sha qo'lida uzun kaltak tutgan domla. O'sha-o'sha kaltak bilan o'quvchilarning tovoniga urishlar, o'sha-o'sha o'quvchilar tomonidan so'zlarning ma'nosini uncha fahm etmasalar-da, ularni jon-jahdlari bilan yodlashlari, arzimagan gunoh uchun ayovsiz jazo va bolalarning ota-onalaridan nimadir undirish harakatlari.

Mullaning rahmsizligi o'quvchi Salimda norozilik va haqoratlar uchun qasos olish istagini tug'diradi. Uning bolalarcha sho'xligi domlaning g'azabini junbushga keltiradi va u bolaning a'zoyi badanini momataloq bo'lgunicha shafqatsiz ravishda kaltaklaydi. Alamiga chidolmagan Salim o'z savdo ishlari bilan ketgan otasining ortidan sahro orqali Basra shahriga qochib ketadi. Sahroda adashib qolgan bolani badaviylar oilasi topib oladi va uning ota-onasi kelgunicha parvarish qiladi. Salim sershovqin shaharga qaytadi. Lekin sahrodagi erkin hayot va mehmondo'st badaviylar oilasidagi samimiylilik bir umr uning qalbida saqlanib qoladi.

Hikoyada kichik shaharchadagi hali iqtisodiy talato'p va ta'lim sohasidagi islohotlar yetib kelmagan eski maktab tasvirlanadi. Kuvaytning ko'pgina yirik shaharlarida ta'lim islohoti bo'lib o'tgan va buning natijasida Kuvayt zamonaviy ta'lim usullari va zamonaviy texnikaga ancha yaqinlashib qolgan edi.

Adibaning ilk hikoyalari yozuvchining «Qora ter»[2] nomli birinchi hikoyalar to'plamiga kiritildi va rus, ingliz, yapon, polyak va boshqa dunyo tillariga tarjima qilindi. Adibaning “Mulla” hikoyasi monolog tarzida yozilgan, ya'ni yosh o'spirin o'z hayotidagi epizodlar to'g'risida hikoya qiladi. Qahramon monologi yozuvchiga o'z qahramoni ichki hissiyotlarini o'ta ishonchli tasvirlash va uning ruhiy qiyofasini yaratish imkonini beradi.

Surayyo Baqsamiyning “Mulla” hikoyasi Sadridin Ayniyning “Eski maktab” hikoyasidan ancha kech, ya'ni 70-yillarda yozilgan bo'lsa-da, Kuvaytdagi ijtimoiy muhit Sadridin Ayniy tasvirlagan eski maktab muhitiga juda o'xshaydi, chunki bu xalqlar o'z boshidan o'xshash jarayonlarni kechirgan.

Birlashgan Arab Amirligi adabiyotining yorqin vakili Shayxa Naxiy “Xotira burchagidan” [10] hikoyasida mamlakatda ro'y berayotgan madaniy o'zgarishlar, maktablarda yangi ta'lim tizimini o'rnatish bilan uzviy bog'liq hodisalar to'g'risida yozadi. Kichkina an'anaviy maktablar - kuttablar tugatilib, muallimlar soni ortganligi, havaskorlik bilan dars beruvchi volontyorlar paydo bo'lganligi jarayoni xususida so'z yuritadi. Uning asardagi ayol qahramoni yoshligida eski maktabda tahsil olgan. Farzandlari esa yangi maktablarda tahsil olishadi. Bir kuni ayol

qizini maktabga olib ketayotganida, ko'zi axlat qutiga engashib bir narsalarni sekin titkilayotgan kimsaga tushadi. Uni ko'rib, darhol eski maktabdagi o'qituvchisi ekanligini angelaydi. Uning darslarini, har payshanba kuni ota-onasi unga, ya'ni muallimga-pul olib kelganini eslaydi. Bu uning har hafta oladigan maoshi edi. Lekin u ta'lim bilan birga bolalarga foydali tarbiya ham berar edi, uning qilgan o'gitlari qahramon hayotiga ijobiy ta'sir qildi, ularni hech qachon esidan chiqarmaydi. Endi madaniy islohotlar orqali eski maktablar yopildi. Qahramon ayol ustozini bunday nochor ahvolda ko'rib, achinadi. Lekin yordam qo'llarini cho'zmaydi. Bu achinarli holatdir. Darhaqiqat bunga katta shahar ta'siri bo'lib, u ba'zilarini oqibatsiz qilib qo'ygani natijasidir.

Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy haqli ravishda yangi davr o'zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri sanaladi. U pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan ustoz, o'z asarlarida xalqimizning eng yaxshi an'analarini aks ettirgan ijodkor, noshir va jamoat arbobidir.

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir, mashhur tarbiyachi Abdulla Avloniy Toshkentda 7 yoshidan maktabda, 12 yoshidan madrasada tahsil oldi.

U oldin eski maktabda ta'lim oldi. U o'z tarjimai holida yozishicha: «12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim, 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda «Tarjimon» gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim».[3:61] Abdulla Avloniy madrasani bitirgach, maktabdorlik bilan shug'ullandi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etgan yosh pedagog o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Eski maktabda o'qish, hayotiy, shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan Avloniy bu borada muhim islohotlar o'tkazish tarafdori va faoli bo'ldi.

O'z davrining ilg'or ziyolilari bilan hamkorlikda diniy bilimlar qatori dunyoviy bilimlarni ham o'qitadigan yangi usuldagi maktablar ochish, kambag'al oilalar bolalarini maktablarga jalb etish va ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida xayriya jamiyatlarini tashkil etgani, «Nashriyot» shirkatini tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» nomli kitob do'koni ochganining o'zi ham fikrimiz isboti bo'la oladi.

Abdulla Avloniy «usuli jadid», ya'ni ilg'or usuldagi maktablar uchun «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Birinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq»(1913), «Ikkinchi muallim» (1912), «Maktab gulistoni» kabi darslik va o'qish kitoblarini yaratdi. Qur'oni karim suralaridan, hadisi shariflardan namunalar berilish bilan bir vaqtda, o'zbek xalqining boy ma'naviy merosi – ertak, maqol, topishmoq va didaktik hikoyalardan unumli foydalanilgan bu kitoblar xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan. Abdulla Avloniy pedagogikaga oid asarlarida ham, publisistik maqolalari, she'r va dramalarida ham dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, xalqni ilimli, madaniyatli bo'lishga undadi.

Abdulla Avloniy va uning maslakdoshlarining xatti-harakati zoe ketmadi. O'zbek xalqi savodli bo'lib yetishdi. Hozirgi davrda ham Avloniyga o'xshagan ajdodlarimiz o'git-saboqlari, ular o'qitilgan "eski maktab"larning yangi ko'rinishlari va chala savodli muallimlar zararliligi to'g'risidagi fikrlar hali o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki, hozirgi kunda ta'lim tizimida yangi islohotlar o'tkazilmoqda, ma'rifat va bilim olish yo'llari yanada kengaymoqda, xalqimiz oldida yangi ufqlar ochilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, mazkur maqolada tahlilga tortilgan o'zbek va arab adiblarining asarlari ayni damda bizlarni o'tmishga bir lahza bo'lsa-da, muallif bilan qaytib, bugungi

kunimiz bilan solishtirish, bugunga shukrona keltirish, ertaga bugungidan-da yaxshi natijalarga erishishimizga umid qilishimiz uchun turtki bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ветры залива. Сборник рассказов/. Предисловие А.Васильева. – М.: Радуга, 1984.
2. البقصة ثريا. العرق الأسود. مجموعة قصصية. – الكويت، ١٩٧٧.
3. “O‘zbek adiblari”. T., G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 2016.
4. Akbarova M.X. Yangi davr arab adabiyoti (XIX-XX asrlar).T.,2009
5. Таха Хусейн. Избранное.М.,1989.
6. A.Suyumov, M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti.T., O‘qituvchi.1995
7. “Ishonch”gazetasi, 2003 y., 19 avgust.
8. Mustafoyeva N. Ma‘rifat darg‘asi. // Guliston. 1998. № 3.
9. Qosimov B. Jadidlar va milliy mafkura: millat va ma‘naviyat // Tafakkur 2000. № 3.
10. الناخى شيخة، الرحيل، مجموعة قصصية، اتحاد كتاب و ادبا الامارات، 1992، ص.110.
11. Akhmedova Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "SYMBIOSIS OF ARTISTIC TRENDS IN CONTEMPORARY LITERATURE OF THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)* 2.09, -P.105-109.
12. Ahmedova Shahlo Irgashbaevna. (2021). "BAHRAYN YOZUVCHILARI FAVZIYA RASHID VA AMIN SOLIH HIKOYALARI USLUBI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.Special Issue 2,-P. 85-90.
13. Akhmedova Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "Ideological and artistic searches in the short stories of the arab countries of the persian gulf at the beginning of the XXI century." *Asian Journal of Multidimensional Research* 10.10,-P. 838-842.
14. Ahmedova Shahlo Irgashbaevna. (2021). "XITOY VA KO‘RFAZ ARAB MAMLAKATLARI YOZUVCHILARI ASARLARIDA MAGIK REALIZMNING XUSUSIYATLARI VA USLUBLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.Special Issue 1,-P. 369-375.
15. Akhmedova Shahlo. (2017). "NOVELLISTICS IN THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF." *International Scientific and Practical Conference World science*. Vol. 5. No. 4, -P.9-11
16. Ahmedova Shahlo Irgashbaevna. (2022). FORMATION AND IMPROVEMENT OF REALISTIC STORY IN KUWAIT AND BAHRAIN LITERATURE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.Special Issue 6,-P. 409-414.